

**2025-yil davomida "Navoiyuran" DKda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT**

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2025-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 7-banddan iborat 2026-yilga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" tasdiqlangan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo'linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Bosh direktorning 2022-yil 16-iyundagi 211-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan korxonada standartiga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida komplayens xizmati bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilgan. 2025-yil davomida korxonada tomonidan qabul qilingan jami 529 ta ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi .	https://www.navoiyuran.uz/; (79) 507-00-55 (ishonch telefoni); @navoiyuran_antikor_bot; (79) 507-01-50 (Komplayens xizmati aloqa kanali); info@navoiyuran.uz
4	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik shaxslarning birlashmalarida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida Nizomining (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.03.2021 yildagi Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 114-son qaroriga 1-ilova) 5-bandiga muvofiq antimonopoliya komplayensini joriy etish, uning faoliyatini ta'minlash va monitoringini olib borish maqsadida "Navoiyuran" DKda Monopoliyaga qarshi yetakchi mutaxassis lavozimi tayinlanib, Komplayens xizmati Nizomi Monopoliyaga qarshi kurashish talablariga muvofiqlashtirildi.
5	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari aniqlanmadi.
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo'linganligi.	Korxonaning 2025-yil 22-iyuldagi "Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo'yicha XAVFLAR TASNIFI" tasdiqlandi.

7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	2023-yil 29-noyabrdagi 351-son buyrug'i bilan Korxonada tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlariga oid hujjatlar Nizomi tasdiqlangan bo'lib, ushbu hujjatlar raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari asosida muvofiqlashtirilgan.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	2024-yil 20-noyabrdagi 426-sonli buyrug'iga asosan "Navoiyuran" davlat korxonasi va uning tarkibiy bo'linmalarida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom qabul qilingan.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	Korxonaning barcha xodimlari 2024-yil 20-noyabrdagi 426-sonli buyrug'i bilan tanishtirilgan. Shuningdek, "Navoiyuran" davlat korxonasi korruptsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlarda mavjud xavf-xatarlarni minimallashtirish yuzasidan 2025-yil 26-iyunda Raqobotni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari Sh.Maxmudov ishtirokida seminar-trening o'tkazildi.
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Korruptsiyaga qarshi kurashish hamda monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha 2025-yilda korxonada xodimlari o'rtasida test o'tkazilgan. "Navoiyuran" DK Boshqarmasining 83 ta xodimi testda ishtirok etib, savollarning 94 foiziga to'g'ri javob bergan.
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Korruptsiyaga qarshi kurashish hamda monopoliyaga qarshi komplayens tizimlari faoliyatiga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari hamda korxonada buyruqlari, mas'ul xodimlar tomonidan tayyorlangan maqolalar, hisobotlar va boshqa tadbirlar korxonaning ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirilib borilgan. Havolalar ilova qilinadi.

Izoh: Hisobot taqdim etilishida har bir vazifa bo'yicha amalga oshirilgan ishlar aniq raqamlar va tasdiqlangan isbotlovchi hujjatlar bilan taqdim etilishi lozim.

**Komplayens xizmati
boshlig'i**



A.I.Mustafayev